KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLOM BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	



ISLOM BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Voxidov Oybek Roziqovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”

ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi, PhD.

E-mail: oybekv1980@gmail.com

ORCID: [0009-0008-2614-7250](https://orcid.org/0009-0008-2614-7250)

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom bank mahsulotlarini joriy etish metodologiyasi xalqaro tajriba asosida tahlil qilinib, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya amaliyoti bilan O‘zbekiston bank tizimi qiyosiy jihatdan baholanadi. Tadqiqot davomida islom bank mahsulotlarini joriy etishning asosiy modellari, metodologik yondashuvlari va institutsional mexanizmlari tizimlashtirilgan. Taqqoslovchi tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom bank mahsulotlarini samarali joriy etish alohida moliyaviy instrumentlardan ko‘ra, ularni bosqichma-bosqich tatbiq etish, islom moliyasiga muvofiqlik tizimini shakllantirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga ko‘proq bog‘liqdir. Maqolada O‘zbekiston sharoitida islom bank mahsulotlarini joriy etish uchun moslashuvchan va institutsional tayyorgarlikka asoslangan metodologik model taklif etilib, uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: islom bank mahsulotlari, islomiy moliya, joriy etish metodologiyasi, islom moliyasiga muvofiqlik, risklarni boshqarish, xalqaro tajriba, bank tizimi.

Abstract. This article analyzes the methodology for implementing Islamic banking products based on international experience and provides a comparative assessment of the banking practices of Malaysia, the United Arab Emirates, and Turkey in relation to the banking system of Uzbekistan. The study systematizes the main models, methodological approaches, and institutional mechanisms for introducing Islamic banking products. The results of the comparative analysis indicate that the effective implementation of Islamic banking products depends less on individual financial instruments and more on a phased implementation process, the establishment of a robust Sharia compliance framework, and the development of effective risk management mechanisms. The article proposes a flexible, institutionally prepared methodological model for the implementation of Islamic banking products in Uzbekistan and formulates scientific and practical recommendations for its application.

Keywords: Islamic banking products, Islamic finance, implementation methodology, Sharia compliance, risk management, international experience, banking system.

Аннотация. В статье анализируется методология внедрения исламских банковских продуктов на основе международного опыта, а также проводится сравнительная оценка банковской практики Малайзии, Объединённых Арабских Эмиратов и Турции с банковской системой Узбекистана. В ходе исследования систематизированы основные модели внедрения исламских банковских продуктов, методологические подходы и институциональные механизмы. Результаты сравнительного анализа показывают, что эффективность внедрения исламских банковских продуктов в большей степени зависит не от отдельных финансовых инструментов, а от поэтапности внедрения, формирования системы соответствия нормам шариата и развития механизмов управления рисками. В статье предложена методологическая модель внедрения исламских банковских продуктов в условиях Узбекистана, основанная на гибком и институционально подготовленном подходе, а также разработаны научно-практические рекомендации по её реализации.

Ключевые слова: исламские банковские продукты, исламские финансы, методология внедрения, соответствие шариату, управление рисками, международный опыт, банковская система.



KIRISH

So'nggi yillarda islom bank mahsulotlari jahon moliya tizimida barqaror rivojlanish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va real sektorni moliyalashtirishning samarali muqobil mexanizmi sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. Islom bank mahsulotlari foizsiz moliyalashtirish, risklarni bo'lishish hamda real aktivlarga tayangan bitimlar asosida shakllanib, moliyaviy munosabatlarda shaffoflik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu mahsulotlarning amaliy samaradorligi ko'plab mamlakatlar tajribasida o'z tasdig'ini topgan.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, islom bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etish ularning nomlanishi yoki tashkiliy shakliga emas, balki puxta ishlab chiqilgan metodologik yondashuvga bog'liqdir. Xususan, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlarini rivojlantirishda institutsional tayyorgarlik, islom moliyasiga muvofiqlik tizimini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich joriy etish yondashuvi muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlarda murabaha, mushoraka, mudaraba, ijara va sukuk kabi islomiy moliyaviy mahsulotlar bank tizimining ajralmas va samarali tarkibiy qismiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini modernizatsiya qilish va moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish jarayonida islom bank mahsulotlarini joriy etish istiqbolli va dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining islom moliyasi tamoyillariga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi, shuningdek, real sektorni uzoq muddatli va risklarni bo'lishish asosida moliyalashtirish imkoniyatlari ushbu yo'nalishning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, islom bank mahsulotlarini joriy etish O'zbekiston bank amaliyotida yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirish va ularni izchil tatbiq etish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom bank mahsulotlarini joriy etish metodologiyasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda turli mamlakatlar tajribasi asosida keng yoritilgan bo'lib, tadqiqotlarda asosan islomiy moliyaviy mahsulotlarning institutsional, huquqiy va metodologik jihatdan qaysi sharoitlarda samarali joriy etilishi masalalariga e'tibor qaratiladi.

Malayziya tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda islom bank mahsulotlarini joriy etishda markazlashtirilgan va bosqichma-bosqich yondashuv ustuvorligi ta'kidlanadi. Zeti Akhtar Aziz (2012) Malayziyada islom bank mahsulotlari dastlab an'anaviy banklar tarkibida joriy etilib, keyinchalik mustaqil islom banklari hamda rivojlangan islom moliyasi infratuzilmasi shakllantirilganini qayd etadi [1]. Dusuki va Abdullah (2007) esa Malayziya modelida mahsulotlarni standartlashtirish hamda islom moliyasi kengashining markaziy roli islom bank mahsulotlarining barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qilganini asoslaydi [2].

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tajribasi ilmiy adabiyotlarda parallel rivojlanish modeli sifatida tavsiflanadi. Hassan va Lewis (2007) BAAda to'liq islom banklari va an'anaviy banklar tarkibidagi islomiy "oy-nalar"ning bir vaqtning o'zida faoliyat yuritishi natijasida islom bank mahsulotlari bozori jadal kengayganini ta'kidlaydi [3]. Al-Jarhi (2014) esa BAA amaliyotida islom moliyasi kengashlarining mustaqil faoliyati hamda ichki islom moliyasi nazorat mexanizmlarining kuchli institutsional asosga ega ekanini metodologik ustunlik sifatida baholaydi [4].

Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlarini milliy bank tizimiga moslashtirish orqali joriy etish modeli sifatida ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilingan. Özsoy, Görmez va Mekik (2013) Turkiyada islom bank mahsulotlari "participation banking" modeli doirasida rivojlanganini hamda ushbu model milliy qonunchilikka moslashtirilgan holda shakllantirilganini ko'rsatadi [5]. Aysan, Disli va Ozturk (2018) esa Turkiya tajribasida islom bank mahsulotlarining real sektor va kichik biznesni moliyalashtirishdagi roli yuqori ekanini empirik jihatdan asoslab beradi [6].

Xalqaro taqqoslovchi tadqiqotlarda Kammer va hammualliflar (2015) Malayziya, BAA va Turkiya tajribasini solishtirib, islom bank mahsulotlarini joriy etishda islom moliyasiga muvofiqlik tizimi, risklarni boshqarish mexanizmlari hamda rivojlangan institutsional infratuzilma umumiy va muhim metodologik omillar ekanini ta'kidlaydilar [7]. Mualliflar ushbu omillarni hisobga olish islom bank mahsulotlarini samarali va barqaror joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etadilar.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Malayziya, BAA va Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlarini joriy etishda universal yagona model mavjud emasligini, balki har bir mamlakatda metodologiya milliy moliya tizimi va institutsional sharoitlarga moslashtirilgan holda shakllantirilishini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy xulosalar O'zbekiston bank tizimida islom bank mahsulotlarini joriy etishda xalqaro tajribani tanqidiy tahlil qilish va moslashuvchan metodologik yondashuvni qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [1-7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda islom bank mahsulotlarini joriy etish metodologiyasini o'rganishda tizimli va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usullari

asosida Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari hamda Turkiya tajribasi chuqur o'rganilib, ularning O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, konseptual va mantiqiy-tahliliy usullar yordamida islom bank mahsulotlarini joriy etishning asosiy bosqichlari hamda metodologik mexanizmlari aniqlashtirildi. Olingan natijalar islom bank mahsulotlarini milliy bank tizimiga samarali integratsiya qilishga qaratilgan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islom bank mahsulotlarini joriy etish jarayoni turli mamlakatlarda yagona metodologiya asosida emas, balki milliy moliya tizimining rivojlanish darajasi, huquqiy muhit va institutsional tayyorgarlik darajasiga mos ravishda shakllangan. Shu bois, xalqaro tajribani tahlil qilishda asosiy e'tibor alohida moliyaviy mahsulotlarga emas, balki ularni joriy etishning metodologik mantiqi va institutsional mexanizmlariga qaratilishi muhim hisoblanadi. Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlarini joriy etishda turli yo'llar mavjudligini ko'rsatsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat – puxta ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilgan metodologik yondashuvdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Malayziya islom bank mahsulotlarini joriy etishda markazlashtirilgan va standartlashtirilgan yondashuvni muvaffaqiyatli tanlagan. Ushbu modelda, avvalo, normativ-huquqiy baza shakllantirilib, islom moliyasiga muvofiqlik markaziy darajada ta'minlangan hamda mahsulotlar yagona metodologik standartlar asosida ishlab chiqilgan. Natijada islom bank mahsulotlari bank tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan va real sektorni moliyalashtirishda muhim rol o'ynay boshlagan. Ushbu tajriba metodologik aniqlik va institutlararo muvofiqlashtirish mahsulotlarning barqaror va uzluksiz rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Birlashgan Arab Amirliklari tajribasida esa islom bank mahsulotlarini joriy etishda moslashuvchan va bozorga yo'naltirilgan metodologiya ustuvor bo'lgan. To'liq islom banklari hamda an'anaviy banklar tarkibidagi islomiy "oynalar"ning parallel rivojlanishi mahsulotlar xilma-xilligini oshirgan va bozor raqobatini faollashtirgan. Ushbu yondashuv metodologik moslashuvchanlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlash va standartlashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltirgan.

Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlarini milliy bank tizimiga moslashtirilgan evolyutsion model asosida joriy etish mumkinligini ko'rsatadi. Participation banking modeli doirasida islomiy moliyaviy mahsulotlar an'anaviy bank tizimiga integratsiya qilingan holda, keskin institutsional o'zgarishlarsiz va bosqichma-bosqich moslashuv orqali rivojlangan. Natijada islom bank mahsulotlari, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda samarali va barqaror instrument sifatida shakllangan.

Quyidagi jadvalda islom bank mahsulotlarini joriy etish metodologiyasi Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va O'zbekiston amaliyoti misolida qiyosiy tarzda umumlashtirib ko'rsatilgan.

1-jadval. Islom bank mahsulotlarini joriy etish metodologiyasining taqqoslovchi tahlili

Mezonlar	Malayziya	BAA	Turkiya	O'zbekiston
Joriy etish modeli	To'liq islom banklari va islamic windows	Parallel model	Participation banking	Boshlang'ich bosqich
Metodologik mantiq	Markazlashtirilgan va standartlashtirilgan	Moslashuvchan va bozor yo'naltirilgan	Evolutsion va integratsiyalashgan	Bosqichma-bosqich joriy etish
Islom moliyasi nazorati	Markaziy darajada	Banklar kesimida	Milliy muvofiqlashtirish	Shakllanish bosqichida
Mahsulotlar xilma-xilligi	Yuqori	Juda yuqori	O'rta-yuqori	Cheklangan
Risk boshqaruvi	Maxsus metodologiya	Kuchli ichki nazorat	Prudensial moslashuv	Metodologiya ishlab chiqilishi zarur
Real sektor bilan aloqadorlik	Yuqori	Yuqori	O'rta-yuqori	Potensial yuqori

Manba: Ilmiy adabiyotlar va xalqaro bank amaliyoti tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, islom bank mahsulotlarini joriy etishda metodologik tanlovlar mamlakat moliya tizimining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Markazlashtirilgan model yuqori darajadagi nazorat va standartlashtirishni ta'minlasa, moslashuvchan model bozor ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Evolyutsion model esa institutsional barqarorlikni saqlagan holda islomiy moliyaviy mahsulotlarni izchil joriy etishga xizmat qiladi.



O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, islom bank mahsulotlarini joriy etishda asosiy e'tibor alohida mahsulotlarni tanlashga emas, balki ularni joriy etishning ketma-ketligi va metodologik asoslarini to'g'ri belgilashga qaratilishi lozim. Dastlab normativ-huquqiy va institutsional baza shakllantirilib, islom moliyasiga muvofiqlik mexanizmlari izchil yo'lga qo'yilishi, keyingi bosqichda esa mahsulotlar portfeli bosqichma-bosqich kengaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajriba O'zbekiston uchun tayyor va to'liq ko'chiriladigan model emas, balki metodologik yo'l-yo'riq va konseptual asos vazifasini bajaradi. Ushbu tajribani milliy bank tizimining institutsional va huquqiy xususiyatlariga moslashtirish orqali islom bank mahsulotlarini barqaror, shaffof va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda joriy etish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan kengaytirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, islom bank mahsulotlarini joriy etish samaradorligi alohida moliyaviy instrumentlarni tanlashdan ko'ra, ularni joriy etishning metodologik mantiqi va institutsional tayyorgarlik darajasiga ko'proq bog'liqdir. Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya tajribasi islom bank mahsulotlari turli modellar asosida rivojlanganini ko'rsatsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat – bosqichma-bosqich joriy etish, islom moliyasiga muvofiqlik tizimining mustahkamligi va risklarni boshqarish mexanizmlarining ustuvorligidir.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, markazlashtirilgan va standartlashtirilgan model (Malayziya) yuqori darajadagi nazorat va metodologik aniqlikni ta'minlaydi, moslashuvchan va bozor yo'naltirilgan model (BAA) esa mahsulotlar xilma-xilligini kengaytirish va raqobat muhitini rivojlantirish imkonini beradi. Evolyutsion va integratsiyalashgan model (Turkiya) an'anaviy bank tizimi ustun bo'lgan sharoitda islom bank mahsulotlarini izchil va barqaror joriy etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlarning har biri O'zbekiston uchun tayyor nusxa emas, balki milliy sharoitga moslashtirilishi lozim bo'lgan metodologik yo'l-yo'riq sifatida qaraladi.

O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tahlil natijalari islom bank mahsulotlarini joriy etishda bosqichma-bosqichlik va institutsional moslashuvga tayangan metodologiya eng maqbul yondashuv ekanini ko'rsatadi. Dastlab normativ-huquqiy va tashkiliy asoslarni mustahkamlash, keyingi bosqichlarda esa mahsulotlar portfelini izchil kengaytirish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday ketma-ketlik islom bank mahsulotlarini joriy etish jarayonini samarali va boshqariladigan holatda olib borish imkonini yaratadi.

O'tkazilgan tahlildan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, islom bank mahsulotlarini joriy etish uchun yagona metodologik konsepsiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu konsepsiya mahsulot dizayni, islom moliyasiga muvofiqlik, risklarni boshqarish va monitoring jarayonlarini qamrab olib, barcha banklar uchun umumiy metodologik asos vazifasini bajarishi lozim.

Ikkinchidan, islom moliyasiga muvofiqlikni ta'minlash mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash zarur. Markaziy darajada metodologik yo'riqnomalar ishlab chiqilishi, banklar darajasida esa ichki islom moliyasi komplayensi va audit tizimlarining joriy etilishi islom bank mahsulotlarining ishonchligi va shaffofligini oshiradi.

Uchinchidan, islom bank mahsulotlari bilan bog'liq risklarni boshqarish tizimini moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Sheriklikka asoslangan mahsulotlar bilan bog'liq aktivlar riski, islom moliyasi riski va operatsion risklarni baholash uchun maxsus risk-modellarni ishlab chiqish bank amaliyotining samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda xalqaro tajribaga mos prudensial yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, islom bank mahsulotlarini joriy etishda real sektor bilan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Malayziya va Turkiya tajribasi ko'rsatganidek, islom bank mahsulotlari kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda samarali instrument sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga yo'naltirish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, islom bank mahsulotlarini rivojlantirishda inson kapitali va institutsional bilimlar bazasini mustahkamlash zarur. Bank xodimlari, nazorat organlari mutaxassisleri va islom moliyasi bo'yicha ekspertlar uchun maxsus tayyorlov hamda malaka oshirish dasturlarini joriy etish metodologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Oltinchidan, islom bank mahsulotlarini joriy etishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan faol foydalanish tavsiya etiladi. Raqamli platformalar orqali mahsulotlarni monitoring qilish, islom moliyasiga muvofiqlikni nazorat qilish va hisobotlarni avtomatlashtirish jarayonlari umumiy samaradorlikni oshirib, operatsion xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kengaytirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, islom bank mahsulotlarini O'zbekistonda joriy etish kompleks va uzoq muddatli strategiyani talab etadi. Xalqaro tajribani tanqidiy tahlil qilish va uni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali islom bank mahsulotlarini barqaror, shaffof va iqtisodiy jihatdan samarali rivojlantirish uchun mustahkam metodologik asos yaratish mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aziz Z.A. (2012). The role of Islamic finance in financial inclusion and stability. *Islamic Finance Review*, 1(1), 1-14.
2. Dusuki A.W. & Abdullah N.I. (2007). Maqasid al-Shariah, maslahah, and corporate social responsibility. *American Journal of Islamic Social Sciences*, 24(1), 25-45.
3. Hassan M.K. & Lewis M.K. (2007). Islamic banking: An overview. In M.K. Hassan & M.K. Lewis (Eds.), *Handbook of Islamic banking* (pp. 1-29). Edward Elgar Publishing.
4. Al-Jarhi M.A. (2014). Islamic banking and finance: Philosophical foundations and contemporary practice. *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*, 10(2), 5-28.
5. Özsoy I., Görmez B. & Mekik S. (2013). Participation banks and efficiency: The Turkish case. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 6(4), 322-339. <https://doi.org/10.1108/IMEFM-05-2013-0053>
6. Aysan A.F., Disli M. & Ozturk H. (2018). Participation banks, economic growth and SMEs financing: Evidence from Turkey. *Journal of Economic Behavior & Organization* 154, 78-98. <https://doi.org/10.1016/j.jebo.2018.07.005>
7. Kammer A., Norat M., Pinon M., Prasad A., Towe C. & Zeidane Z. (2015). Islamic finance: Opportunities, challenges, and policy options (IMF Staff Discussion Note No. SDN/15/05). International Monetary Fund.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100